



Qarshibayev Murodil Qarshibay o'g'li,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash” kafedrası o'qituvchisi

e-mail: murodilkarshibayev@gmail.com

HARBIY XIZMATCHI OILASIDA MOBIL ADDIKSIYA SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

<https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.266>

Annotatsiya. Harbiy xizmatchi oilasidagi mobil addiksiya bilan bog'liq muammolar bugungi kunda ham mahalliy, ham xorijiy olimlar tomonidan o'rganilayotgan muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchi oilasi o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan alohida ijtimoiy guruh ekani bois, harbiy xizmatchilarning oilalari fenomen sifatida jamiyat institutsionallashtirishida muhim hisoblanib, oiladagi submadaniyatning o'ziga xos jihatlari, rotatsiya qilinish jarayonidagi holati, ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning, bolalarning yangi muhitga moslashishi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarga kirishishida namoyon bo'ladi. Maqolada ushbu muammo yuzasidan olib borilgan empirik tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: harbiy xizmatchi oilasi, shaxsiy realizatsiya, mustaqillik, shaxslararo munosabatlar, submadaniyat, sibling munosabatlar, individual-psixologik xususiyatlar, instrumental qadriyatlar, terminal qadriyatlar.

Аннотация. Проблемы, связанные с мобильной аддикцией (зависимостью от мобильных устройств) в семьях военнослужащих, в настоящее время являются одной из актуальных тем, изучаемых как отечественными, так и зарубежными исследователями. Семья военнослужащего представляет собой особую социальную группу, обладающую специфическими психологическими характеристиками и важное звено в процессе институционализации общества. Для таких семей характерны уникальные особенности семейной субкультуры, особенности состояния в период ротации, специфика взаимоотношений между родителями и детьми, адаптация членов семьи к новым условиям и включение в систему социальных взаимодействий. В статье представлены результаты эмпирического исследования социально-психологических факторов формирования мобильной аддикции в семьях военнослужащих. Полученные данные позволяют выявить влияние мобильных технологий на семейное общение, эмоциональную близость и особенности социализации детей.

Ключевые слова: семья военнослужащего, мобильная аддикция, личностная реализация, независимость, межличностные отношения, субкультура, sibling-взаимоотношения, индивидуально-психологические особенности, инструментальные и терминальные ценности.

Annotation. Problems associated with mobile addiction (dependence on mobile devices) in military families remain one of the pressing issues studied by both domestic and foreign scholars. A military family is a distinct social group characterized by specific psychological features and dynamics, playing a significant role in the institutionalization of society. Such families exhibit unique features of family subculture, challenges associated with rotation and relocation, parent-child relationships, and the process of adaptation to new environments, as well as integration into social interaction systems. This article presents the results of an empirical study on the socio-psychological factors of mobile addiction formation in military families. The findings highlight the influence of mobile technologies on family communication, emotional closeness, interpersonal relationships, and children's socialization processes.

Keywords: military family, mobile addiction, personal self-realization, independence, interpersonal relations, subculture, sibling relations, individual psychological characteristics, instrumental and terminal values.

Kirish. Bugungi globalashuv va raqamli texnologiyalar zamonida jamiyatimizdagi zamonaviy oilalarda axborot-kommunikatsiya vositalari ta'siri chuqur o'rnashib bormoqda. Ayniqsa, mobil telefonlar va Internet tarmoqlari kundalik muloqot, axborot almashinuvi hamda dam olish vositasi sifatida inson faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda oilalar, birinchi navbatda, odamlar o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqalar, munosabatlarning hissiy rangi, shaxsiy ko'rinishlarning ko'p qirraliligi va ijtimoiy xavfsizlik bilan tavsiflanadi hamda jamiyat va madaniyatda o'zini shaxsiy belgilash bilan bog'liq juda muhim funksiyalarni bajaradi. Shu qatorda harbiy xizmatchi oilasida ham yuqoridagi muhim funksiyalar mujassam bo'lishi kerak.

Harbiy xizmatchilar oilasi ham o'ziga xos ijtimoiy-psixologik muhitga ega bo'lib, har bir harbiy xizmatchining oilasi xizmat vazifasi tufayli yashash joyini o'zgartirishi yoki rotatsiya qilinishi, xizmat sharoitining murakkabligi, uzoq muddatli ayriliqlar (ma'lum muddat harbiy xizmatning ba'zi talablari sababli erkak kishining o'z turmush o'rtog'idan ayro yashashi), ernaing xizmat vazifasi sababli oilada vujudga keladigan stressli omillar va ijtimoiy cheklovlar mobil vositalardan haddan ortiq foydalanish uchun zamin yaratadi. Shu sababli mobil texnologiyalardan me'yordan ortiq foydalanish natijasida mobil addiksiya, ya'ni smartfon va Internetga nisbatan psixologik qaramlik holatlari tobora ko'paymoqda.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarni harbiy xizmatchilar oilasi fenomeni, uning oilalarning hayot sifatiga ta'siri uzoq vaqtdan beri qiziqtiradi. Harbiy xizmatchi oilasida eng dolzarb muammolardan biri – farzandlarning yangi muhitga moslashishidagi qiyinchiliklar sababli, ularda mobil addiksiyaning vujudga kelishi.

An'anaviy jamiyat sharoitida bolalar tug'ilishining iqtisodiy motivlari ustunlik qildi, chunki bolalar mehnatkash sifatida oilaga iqtisodiy jihatdan foydali bo'lgan va ota-onalari qariganda ularning farovonligi kafolati bo'lgan. Bolalar alohida iqtisodiy ne'matdir, chunki ular nafaqat oila ehtiyojlarining manbayi, balki uning uzoq muddatli investitsiya obyekti hamdir. Bunday investitsiya jarayonini amalga oshirib, oila kelajakdagi xarajatlarini butun oila uchun yoki bolaning o'zi uchun daromadlar oqimini oshirish orqali qoplashga

umid qiladi¹. Harbiy xizmatchi oilalari o'ziga xos submadaniyatni tashkil qiladi. Mazkur oilaviy tuzilma o'zining murakkab funksional va rolli strategiyalarini amalga oshiruvchi, kengaytirilgan qardoshlik tizimiga ega bo'lgan o'ziga xos ijtimoiy-psixologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Oilaviy submadaniyat dunyoqarashning o'ziga xos modelini ifodalaydi hamda boshqa ijtimoiy guruhlardan farqlanuvchi qadriyatlar tizimi, hayotiy munosabatlar va xulq-atvor strategiyalari bilan tavsiflanadi. Shu bois, oilaning o'ziga xos turmush tarzi uning mavjudligining psixologik poydevorini shakllantirib, unda maxsus madaniy komponentning mavjudligi haqida ilmiy asosda so'z yuritish imkonini beradi².

Maqsad va uni asoslash. Harbiy xizmatchi oilalar submadaniyatining tarkibiy qismlari: ota-onalar motivatsiyasining xususiyatlari, oilaviy funksiyalarni o'ziga xos tarzda amalga oshirish, oilaviy o'zaro ta'sir va muloqot strategiyalari, psixologik iqlim hisoblanadi. Oilalar submadaniyatining xususiyatlari bir qator omillar bilan belgilanadi: har bir oilaning madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy holati, psixologik iqlim, o'zaro ta'sirning kommunikativ strategiyalari, farzandlar uchun psixologik motivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim strategiyalari, boshqaruv, vertikal va gorizontaal quyi tizimlar darajasidagi ta'sir, sibling munosabatlarda kengaytirilgan operatsiyalar³. Oilaning tuzilishi, funktsionalligi va rol tuzilmalarida sezilarli o'zgarishlarga olib keladigan dinamik jarayonlar yashirin, lekin doimiy va barqaror ravishda sodir bo'ladi. Biz zamonaviy jamiyatda qabul qilingan ma'lum me'yoriy model bo'lgan va yangi avlodlar hayotiy strategiyasini amalga oshirishning o'ziga xos ssenariysi sifatida ijtimoiy yo'riqnoma vazifasini o'taydigan yadroli kichik bolalarga asoslangan oila davrining guvohi bo'lamiz. Shu bilan birga, oilalar mafkurasi davlat, ijtimoiy va iqtisodiy darajalarda joriy etilib, uni rag'batlantirishning maqsadli siyosati o'z ifodasini topmoqda⁴.

¹ Бойко В.В. Структура и особенности многодетной семьи [Текст] / В.В. Бойко. – Москва: Класс, 2011. – 118 с.

² Смирнов Т. А. Социализация личности: проблемы формирования толерантности личности в семье // Успехи современной науки. 2016. №5. – С. 56–58.

³ Васильева Э.К. Семья и ее функции [Текст] / Э.К. Васильева. – Москва: Статистика, 2008. – С. 180.

⁴ Бойко В.В. Многодетная семья [Текст] / В.В. Бойко. – Москва: Мысль, 2008. – С. 237.

Oila psixologiyasida so‘nggi yillardagi tadqiqotlar (V.Mendelevich, A.Y.Lichko, E.E.Krivtsov va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, addiktiv xulq-atvor shakllanishida mikromuhit, stressga bardoshlilik darajasi, emotsional yetishmovchilik va oiladagi kommunikatsiya tizimi muhim rol o‘ynaydi. Harbiy oilalarda bu omillar yanada kuchliroq namoyon bo‘lishi sababli, mobil addiksiyaning shakllanish mexanizmlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Harbiy xizmatchi oilasiga nisbatan keng tarqalgan qarash tarixiy, ijtimoiy, madaniy qarashlar nuqtayi nazaridan bo‘lib, ular milliy an‘analarga yoki oilalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq ekanida ifodalanadi. Harbiy xizmatchilarning oilalari ko‘pincha fanda ularning lokalizatsiyasining geterogenligi – qishloqdagi ko‘p oilalarning ustunligi, shuningdek, diniy va etnik an‘analarning ularning o‘ziga xos xususiyatlariga ta‘siri bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi⁵.

Xususan, ko‘p bolali harbiy xizmatchi oilalarining psixologik tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlarning xususiyatlarini o‘rganishga e‘tibor beriladi. Munosabatlar tuzilishini o‘rganishda quyidagi qoidalar hisobga olinadi. Kattaligi jihatidan har xil bo‘lgan oilalarda shaxslararo munosabatlarning tuzilishi ham har xil bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bor⁶. Sibling pozitsiyasi hamda uning yangi bolaning kelishi bilan bog‘liq o‘zgarishi aka-uka va opa-singilning boshqa oila a‘zolari bilan o‘zaro munosabatlarining xususiyatlarini belgilaydi. Oiladagi shaxslararo munosabatlar bolalarning kognitiv va shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, oila kattaligi ham bu tuzilmalarga ta‘sir qiladi⁷. Ko‘plab tadqiqotlarda bolalar va ota-ona munosabatlari, ota-onalarning bolalarning individual shaxsiy xususiyatlarini idrok etishining o‘ziga xos xususiyatlari, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar, aka-uka o‘rtasidagi munosabatlar, bolalarning oilaviy munosabatlar

haqidagi tasavvurlari va boshqalar shu kabi oilaviy xususiyatlar sifatida ko‘rsatilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Shaxsni shakllantirishning eng muhim mexanizmi bu oila bo‘lib, u shaxsning eng yaqin muhitini ifodalaydi va unga erta bolalikdan boshlab oilaning mentaliteti, uning an‘analari, qadriyatlar va turmush tarzi asoslarini o‘rgatadi. Oila – shaxsning jismoniy, aqliy, hissiy va intellektual rivojlanishi uchun shart-sharoitlar bevosita shakllanadigan muhit bo‘lib, bolaning birinchi jamoasi, uning odatlari va munosabatlarining shakllanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Shaxslararo munosabatlar tajribasi, shu jumladan, ijobiy va salbiy tomonlari ham oilada shakllanadi. Ushbu hodisani o‘rganayotganda, bolaning shaxsiy fazilatlarini ijtimoiylashtirish hamda rivojlantirishga ota-onalar ta‘sirining muayyan modellarini o‘rnatish uchun bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash muhimdir.

Yuqorida keltirilgan ilmiy muammoni tadqiq etish maqsadida psixodiagnostik metodikalardan biri hisoblangan M.Rokichning “Qadriyatlar oriyentatsiyasi” hamda T.Liri va L.Sobchikning “Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi” metodikalaridan foydalanildi. Boisi, aynan oila submadaniyati qadriyatlar hamda oila a‘zolarining bir-biriga bo‘lgan munosabatlari asosida shakllanadi.

I-jadval

T.Liri va L.Sobchikning “Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi” metodikasining normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirish

Shkalalar nomi	Z qiymat	Ishonchlilik ko‘rsatkichi
I Hukmronlik-liderlik	1,405	0,039*
II Mustaqillik-ustuvorlik	1,709	0,006**
III To‘g‘ri-tajovuzkor	1,564	0,015*
IV Ishonchsizlik-spektiklik	1,309	0,065
V Itoatkor-tortinchoqlik	1,113	0,168
VI Bog‘liqlik-bo‘ysinuvchanlik	1,207	0,108
VII Hamkorlik-konvensiallik	1,334	0,057
VIII Mas‘uliyatlilik-bag‘rikenglik	1,413	0,037*

Izoh: *- p<0,05, **- p<0,01.

⁵ Баздырев К.К. Единственный ребенок [Текст] / К.К. Баздырев. – Москва: Наука, 2013. – 119 с.

⁶ Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия: теоретические подходы. – Москва, 2002. – 286 с.

⁷ Колесов В.И. Семья как основа формирования личности в процессе воспитания в современном социуме // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. 2019. №1. С. 5-9.

T.Liri va L.Sobchikning “Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi” metodikasining normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirish davomida olingan natijalar tahlili quyidagicha tus oldi: humkdorlik-liderlik shkalasi bo'yicha ($Z=1,405$; $p<0,05$), mustaqillik-ustivorlik shkalasi bo'yicha ($Z=1,709$; $p<0,01$). to'g'ri-tajovuzkor shkalasi bo'yicha ($Z=1,564$; $p<0,05$), ishonchsizlik-spektiklik shkalasi bo'yicha ($Z=1,309$; $p>0,05$), itoatkor-tortinchoqlik shkalasi bo'yicha ($Z=1,113$; $p>0,05$), bog'liqlik-bo'ysinuvchanlik shkalasi bo'yicha ($Z=1,207$; $p>0,05$), hamkorlik-konvensiallik shkalasi bo'yicha ($Z=1,334$; $p>0,05$), mas'uliyatlilik-bag'rikenglik shkalasi bo'yicha ($Z=1,413$; $p<0,05$) aniqlandi. Tahlillarga muvofiq metodika shkalalari yarmi parametrik, yarmi esa noparametrik mezonlarga mos kelishi isbotlandi. Olingan natijalarga ko'ra, ko'p bolali harbiy xizmatchi oilalarining submadaniyatidagi shaxslararo munosabatlarda ko'proq mustaqillik-ustuvorlik, fikrlar erkinligi hamda qarashlar xilma-xilligi muhim o'rin tutar ekan. Itoatkorlik hamda tortinchoqlik kabi psixologik xususiyatlar shaxslararo munosabatlarda kamroq namoyon bo'lib, bu, asosan, bolalarning ko'pligi hamda ulardagi “ego identifikatsiya”ning ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga kelish dinamikasi bilan bog'liq.

Bugungi kunda shaxs qadriyatlarini tushunish muammosi ilmiy bilimlarning eng yuqori o'rniga chiqdi va shu bilan fan rivojlanishining zamonaviy, aksiologik bosqichini belgilab berdi. Biroq insoniy qadriyatlar va qadriyat yo'nalishlari har doim falsafa, etika, sotsiologiya hamda psixologiya alohida bilim sohalari sifatida shakllanishi va rivojlanishining barcha bosqichlarida eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib kelgan. Qadriyatlarning ta'sirini o'rganishga arziydigan deyarli barcha ijtimoiy hodisalarda kuzatish mumkin. Qadriyatlar mavzusi (ham shaxs uchun ham, umuman fan uchun ham) dolzarbligiga qaramay, shoshilinch hal qilishni talab qiladigan juda ko'p sirlar va qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi.

M.Rokichning fikriga ko'ra, insoniy qadriyatlarining tabiati:

- insonning mulki bo'lgan qadriyatlarining umumiy soni nisbatan kichik;
- barcha odamlar turli darajada bo'lsa-da, bir xil qadriyatlarga ega;

- qadriyatlar tizimlarga ajratilgan;
- insoniy qadriyatlarining kelib chiqishini madaniyat, jamiyat va uning institutlari, shaxsda kuzatish mumkin;
- qadriyatlarining ta'sirini o'rganishga arziydigan deyarli barcha ijtimoiy hodisalarda kuzatish mumkin⁸.

M.Rokich qadriyatlarining ikkita sinfini ajratadi: terminal va instrumental. M.Rokich yakuniy qadriyatlarni individual mavjudligining qandaydir yakuniy maqsadi (masalan, baxtli oilaviy hayot, dunyo tinchligi) shaxsiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan intilishga arziydigan ishonch sifatida belgilaydi. Instrumental qadriyatlar har qanday holatda ham shaxsiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan ma'lum bir harakat yo'nalishi (masalan, halollik, ratsionalizm) afzalroq ekani haqidagi e'tiqodlar sifatida tavsiflanadi. Aslida, terminal va instrumental qadriyatlarni ajratish allaqachon qadriyatlar – maqsadlar va qadriyatlar – vositalar o'rtasidagi an'anaviy farqni keltirib chiqaradi.


Hayotdagi strategiyalarni to'g'ri va oson tanlashning so'nggi bosqichi shaxsning qadriyatlar tizimidagi ustuvor qadriyatlarga borib taqaladi. Instrumental qadriyatlar turli terminal qadriyatlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin va terminal qadriyatlar shaxslarda farq qilishi mumkin. Shu bilan birga, axloqiy muloqotlarda terminal qadriyatlarni aniqlashtirish muhim rol o'ynaydi.

Instrumental qadriyatlar – yakuniy qadriyatlarga erishish va saqlash uchun zarur bo'lgan vositalar va shartlar. Chiroyli bezaklar, nafis kiyimlar, shaxslar o'z uylarini bezab turgan badiiy mahsulotlar go'zallikdan zavqlanish vositasi sifatida, sport bilan shug'ullanish orqali salomatlikni saqlash va mustahkamlash sharti sifatida instrumental ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Mansab ko'tarilishi shaxs tomonidan instrumental qadriyat sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, unga nisbatan yakuniy qadriyat, uning shaxsiy imkoniyatlarini yoki ijodiy g'oyalarini amalga oshirish imkoniyati uchun zarur vosita bo'lishi mumkin. Qulay yashash sharoitlari instrumental qadriyatlar sifatida namoyon bo'lishi mumkin, chunki ular insonning subyektiv farovonligi va quvonch hissini ta'minlaydi. Bunday qadriyatlar qulaylik va barqarorlikni ta'minlovchi moddiy ne'matlar, ularni qo'lga kiritish uchun

⁸ Rokeach M. The nature of human values / M. Rokeach. – New York: Free Press, 1994. – 438 p.

zarur bo'lgan iqtisodiy resurslar pul mablag'lari, yuqori maoshli (hatto shaxsiy qiziqish bilan mos kelmasa ham) ish, shuningdek, yuqori lavozimlarni egallash imkonini beruvchi malaka va diplomlar bilan ifodalanadi. Instrumental qadriyatlar utilitar xususiyatga ega bo'lib, ularning mohiyati foydalilik mezoniga asoslanadi. Ular inson faoliyatida bevosita maqsad emas, balki maqsadga erishish vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Ko'p hollarda qadriyatlar bir-biriga mos kelmaydi. Inson ko'pincha ba'zi qadriyatlar uchun boshqalarni qurbon qilishga majbur bo'ladi. Shaxslar doimiy ravishda kundalik hayot sharoitida muqobil qadriyatlarni tanlash muammosiga duch kelishadi. Oila bilan muloqot va do'stlar bilan muloqot – ikkalasi ham qimmatli.



2-rasm. Ko'p bolali harbiy xizmatchi oilalaridagi qadriyatlar oriyentatsiyasining namoyon bo'lish ko'rsatkichlari (terminal qadriyatlar asosida)

Ko'p bolali harbiy xizmatchi oilalaridagi qadriyatlar oriyentatsiyasining namoyon bo'lish ko'rsatkichlari tahliliga muvofiq ularda terminal qadriyatlardan, asosan, baxtli oilaviy hayot (13,8),

shaxs sifatida rivojlanish (14,1), yaxshi va sodiq do'stlarning borligi (13,4), salomatlik (15) kabi qadriyatlar oila submadaniyatida ustunlik qilar ekan. Bundan ma'lum bo'ladiki, ko'p bolali harbiy xizmatchi oilalarida shaxslarning salomatligiga, xususan reproduktiv salomatlikka ham e'tibor baland bo'lib, baxtli oilaviy hayotni qurishda sog'lom psixologik munosabatlar, har bir oila a'zosining shaxs sifatida shaxsiy realizatsiyasi, intellektual-madaniy o'sishi kabilar muhim predikativ belgilar hisoblanadi. O'yin-kulgi (3,5), ijodiyot (4,8), tabiat va san'at go'zalligi (5) kabi qadriyatlarga kamroq o'rin berilishi ko'p bolali harbiy xizmatchi oilalari submadaniyatida estetik zavqdan ko'ra praksik faoliyatga urg'u berish yuqoriroq ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Yakuniy qism. Ko'p bolali harbiy xizmatchi oila submadaniyatining moslashuvchan va ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi oilaning tarbiyaviy ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarida, ota-ona va aka-uka tuzilmalarining ma'lum bir bolaning ijtimoiylashuviga ta'sirida yotadi. Oilaning umumiy strategiyasi hamkorlikka yo'naltirilganligi, ota-ona quyi tizimi – birgalikda qaror qabul qilish, mas'uliyatni taqsimlash, nikoh va bolalar quyi tizimi – yanada uyg'unlik, ularning "oilaviy munosabatlari" amalga oshirish bilan tavsiflanadi. Yuqorida olingan empirik ma'lumotlarga asoslanib, ko'p bolali harbiy xizmatchi oilalari submadaniyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik predikatlari sifatida mustaqillik, shaxsiy realizatsiya, ustuvorlik, mehnatsevarlik, o'zidan va boshqalardan yuqori talablar kutish orqali mukammallikka intilish kabilar yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бойко В.В. Структура и особенности многодетной семьи [Текст] / В.В. Бойко. – Москва: Класс, 2011. – 118 с.
2. Смирнов Т. А. Социализация личности: проблемы формирования толерантности личности в семье // Успехи современной науки. 2016. №5.
3. Васильева Э.К. Семья и ее функции [Текст] / Э.К. Васильева. – Москва: Статистика, 2008. – 180 с.
4. Бойко В.В. Многодетная семья [Текст] / В.В. Бойко. – Москва: Мысль, 2008. – 237 с.
5. Баздырев К.К. Единственный ребенок [Текст] / К.К. Баздырев. – Москва: Наука, 2013. – 119 с.
6. Андреева Г.М., Богомолова Н.Н., Петровская Л.А. Зарубежная социальная психология XX столетия: теоретические подходы. – Москва, 2002. – 286 с.
7. Колесов В.И. Семья как основа формирования личности в процессе воспитания в современном социуме // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. 2019. №1. С. 5-9.
8. Rokeach M. The nature of human values / M. Rokeach. – New York: Free Press, 1994. – 438 p.